

**OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TALABALARNING
MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-
NAZARIY ASOSLARI**

Abdujabborova Dilafruz Abdujabborovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muloqot madaniyati asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari va kompetensiyaga asoslangan yondashuv, muloqot madaniyatini va uning xususiyatlari pedagogik muloqot, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muloqotning o'рни haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi muloqoti, muomala madaniyati, ta'lim-tarbiya, pedagogik talab, pedagogik faoliyat, muloqot madaniyatining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari.

Bugungi kunda insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga e'tibor berilmoqda. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan takomillashtirishda muloqot madaniyati asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga

chiqarish, talabalarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi buyuk vazifalarga javobgarlik o'qituvchilar zimmasiga yuklatilmoqda. Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining talabalar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlar va xatti-harakatlari talabaning ideali sifatida namoyon bo'ladi[1;]. Muomala madaniyatni rivojlantirishda talabaning xatti-harakati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega.

Respublikamizda kompetensiya va kommunikativ kompetensiyani darslarda qo'llash U.Begimqulov, A.Musurmanova, M.Irisqulov, K.Riskulova, U.Jumanazarov, G.Asilova, M.Gulyamova, M.Mirzayeva kabilar tomonidan ilmiy asoslangan. Dastlab, kommunikatsiya va kommunikativ kompetensiya tushunchasining mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mazkur tushunchaning mohiyatini ochib berishda ko'plab yondashuvlar mavjud.

Xususan, E.I.Litnevskayaning ta'kidlashicha, kommunikativ kompetensiyaga nisbatan quyidagi ta'rifini ilgari suradi: "nutq faoliyatining barcha turlarini og'zaki va yozma nutq madaniyat elementlarini, ma'lum bir yoshda muloqotning hayotiy sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish"dir[2;].

Talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish ularni akademik va kasbiy muvaffaqiyatlarga tayyorlashning asosiy maqsadi hisoblanadi. Nazariy bilimlarni amaliy qo'llanmalar bilan birlashtirish orqali talabalar turli xil aloqa sozlamalarida tinglash, gapirish, o'qish va yozish qobiliyatlarini oshirishlari mumkin.

Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala o'qituvchi va talaba o'rtasida muomala madaniyatini rivojlantirish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida

talabalar bilan o‘zaro aloqa bog‘lashga qaratilgan o‘qituvchining pedagogik qobiliyatidir[3;]. O‘qituvchi talabalar bilan muomalaga kirishish asosida:

- o‘z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi;
- yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi;
- sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi;
- o‘zining ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir tinglovchi qalbiga yo‘l topadi.

Muomala talaba faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zida ulkan imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Muomalada talabalar quyidagi faoliyatga qat’iy amal qilishi lozim[4;]:

- muloqot madaniyati muomala mahoratining shakllanganligi;
- tarbiyaviy jarayonga oid so‘z va ohangni tanlay bilishi va ta’sir o‘tkaza olishi;
- muomala obyekti bo‘lmish talaba diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o‘z o‘rnida ishlatishi;
- insonning ichki ruhiyatini, psixolog xususiyatlarini bilgan holda muomala qilishi;
- talabalarning ta’limiy va tarbiyaviy muloqotga tayyor bo‘lishi;
- talabaning nutqi ravon va boshqalar ongiga ijobiy ta’sir qiladigan bo‘lishi kerak.

Talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish muammosini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, unga bog‘liq bo‘lgan obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash, talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan kuzatishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

- birinchidan, talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ehtiyojni, qiziqishni va imkoniyatlarni aniq hisobga olinishni;

- ikkinchidan, muloqotchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish shakllari, metodlari va yo'nalishlarini to'g'ri tanlanishi.

Bu o'z navbatida, talabaning turli sharoitlarda yuzaga keluvchi vaziyatlarni to'g'ri baholay olishini, munosabatga kirisha olishi va ta'lim jarayonida faol, ongli ishtirok etishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonidagi layoqatli yondashish bazaviy kompetensiyalar bilan uyg'unlashadi, ya'ni ta'lim mahsuli va samaradorligi shakllanadi. Ta'limning modulli jarayoni ta'lim oluvchilar uchun yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishini shakllantiradi va to'lig'icha kommunikativlikka yo'naltiriluvchi jarayonni hosil qiladi. Ushbu holatda o'zgarish – nafaqat bilimning me'yori, chuqurligi, bilim olish metodi, layoqat shakli o'zgaradi, balki ularning muloqotchanlikka ishtiyoqi kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азимова Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.2.
2. Lutfetdinova R.X.. Produktiv o'qish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertat avtoref. Namangan – 2022.11-b
3. Nurmonov A. Talabalarning til kompetentligini shakllantirish varivojlantirish muammolari // “Ma'rifat” gaz. 2014 y. 18-son.
4. Maxmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. –T.: Alisher Navoiy nomidagimilliy kutubxona, 2007.